

**ZAIF ESHITUVCHI O'QUVCHILARNING MEHNATGA OID KO'NIKMA VA  
MALAKALARINI SHAKLLANTIRISH METODIKASIGA DOIR MILLIY ILG'OR TENDENSIYALAR**

Abdullayeva Nargiza O'ktamovna

Jizzax Davlat Pedagogika Universiteti o'qituvchi

Mavlonova Gulnoza Mamaraximovna

Jizzax viloyat 1-sonli Kar bolalar maxsus

maktab-internati o'qituvchisi

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar mehnat ta'lmini tadqiqot ishlarida mehnat tarbiyasida rivojlanishi mumkin bo'lgan sifatlar bir qator fazilatlarni namoyon qilishda ijobjiy fikrlarni ifodalab berilgan. nazariyalarning barchasini g'oyaviy jihatdan birlashtirgan asos shuki, ular shaxs mehnat tarbiyasi va kamolotida oilaning, oilaviy tarbiyaning rolini yuqori qo'yilganligini, ayniqsa, shaxsning aqliy va axloqiy kamolotida yetakchi hisoblanishi to'g'risida yoritilgan.*

**Kalit so'zlar:** *Eshitishda nuqsoni bo'lgan shaxs, eshitish qobiliyati, mehnat ta'limi, mantiqiy tafakkur, og'zaki nutqni rivojlantirish usullari, mehnat tarbiyasi.*

**Abstract:** *In the research work on the labor education of children with hearing impairment, the qualities that can be developed in the labor education are expressed as positive opinions on the manifestation of a number of qualities. The ideological basis of all the theories is that they highlight the role of the family and family education in the labor training and development of the individual, especially that it is considered the leader in the mental and moral development of the individual.*

**Key words:** *Hearing-impaired person, hearing ability, labor education, logical thinking, methods of oral speech development, labor education.*

**Аннотация:** *В исследовательской работе по трудовому воспитанию детей с нарушением слуха качества, которые можно развивать в трудовом воспитании, выражаются в виде положительных мнений о проявлении ряда качеств. Идеейной основой всех теорий является то, что они подчеркивают роль семьи и семейного воспитания в трудовом обучении и развитии личности, особенно то, что она считается ведущей в умственном и нравственном развитии личности.*

**Ключевые слова:** *Слабослышащий человек, слух, трудовое воспитание, логическое мышление, методы развития устной речи, трудовое воспитание.*

Maxsus maktab internati faoliyatining bugungi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitida insonning hayoti va o'quvchilarning mustaqil, o'zaro muloqot ko'nikmalarini va oddiy mehnat malakalari o'zini-o'zi belgilash jarayoni sifat jihatidan turli xil xususiyatlarga ega bo'lib, ta'lim maktabiga o'z taqdirini o'zi belgilash talablarini sezilarli darajada qo'yadi.

Mehnat – insonning muayyan ehtiyojlarini qondira oladigan va o'ziga kerak bo'ladigan moddiy yoki ma'naviy ne'matlarini ishlab chiqarish (yaratish) bo'yicha ongli, maqsadli va

taqiqlanmagan faoliyatidir. “Mehnat” so‘zi bir qator tushunchalarni o‘z ichiga oladi. Hayot davomida inson ko‘p vaqt, aniqrog‘i har kuni ishlaydi. Mehnat tarbiyasi zaif eshituvchi bolalarda oiladan boshlanadi, ota-onalar farzandlariga kiyinishni, ovqatlanishni, idishlarni yuvishni, narsalarni tozalashni o‘rgatadi, ota-onalar farzandlariga tashqi dunyo bilan tanishishimiz uchun foydali bo‘lgan hamma narsani o‘rgatadilar. Har bir ota-onsa farzandini mehnatkash qilib tarbiyalashga intiladi. Aynan mehnat faoliyati va uning avloddan-avlodga o‘tishi mehnat faoliyati tajribasini saqlab qolgan va shu bilan birga ularni kelajakdag‘i mustaqil faoliyatga tayyorlashni ta’milagan. Maxsus maktab internati boshlang‘ich sinf yoshidagi yetakchi faoliyat – bu o‘quv faoliyatidir. O‘quv faoliyati jarayonida kichik o‘quvchi, ehtimol, qisqa vaqt ichida asosiy ilmiy tushunchalarni o‘zlashtirishi kerak. Shu bilan birga, zaif eshituvchi o‘quvchi o‘zi uchun yangi ilmiy tushunchalar mazmunini o‘zlashtirish bilan birga, u uchun yangi faoliyat turi – o‘rganish usullarini asta-sekin o‘zlashtiradi.

“Mehnat” va “mehnat ta’limi” tushunchalari o‘qituvchilar uchun eng muhimlaridan biri bo‘lib, uzoq tarixga ega. Buni arxeologik qazishmalar natijasida isbotlangan tarixiy faktlar tasdiqlaydi.

Tarbiya, eng avvalo, insonning haqiqiy baxt-saodati, ya’ni g’oya nomidagi hayot haqida qayg‘urishdir. U hayotning har bir daqiqasini va dunyoning har bir burchagida, paydo bo‘lgan shaxs bilan aloqada bo‘lgan har bir odamni ba’zan tasodifan o‘rgatadi.

Milliy logopediya nutqida nuqsoni bo‘lgan bolalarning nutqiy kamchiliklarini bartaraf etish tizimi muammolari tadqiqi bo‘yicha L.Mo‘minova, R.Shomaxmudova, X.Pulatova, SH.Amirsaidova, Z.Axmedova б M.Ayupova samarali ilmiy tadqiqot ishlab chiqib, amaliyotga tavsiyalar tatbiq etgan. Milliy surdopedagogikada kar va zaif eshituvchi bolalar ta’limining turli sohalari ilmiy izlanishlarida tadqiq qilingan.

SH.M.Amirsaidova tadqiqot ishlarida mehnat tarbiyasida rivojlanishi mumkin bo‘lgan sifatlar bir qator fazilatlarni namoyon qilishda ijobiyl fikrlarni ifodalab bergenlar. Sharq mutafakkirlarining barchasini g‘oyaviy jihatdan birlashtirgan asos shu bo‘lganki, ular shaxs mehnat tarbiyasi va kamolotida oilaning, oilaviy tarbiyaning rolini yuqori qo‘yishgan, ayniqsa, shaxsning aqliy va axloqiy kamolotida oilaning o‘rni, ota-onsa va yaqin kishilarning yo‘naltiruvchi va tarbiyalovchi vazifalarini yoritib bergenlar.

Shuningdek, maxsus maktablarda mehnat ta’limini tashkil etish va maxsus yordamga muhtoj o‘quvchilarning ta’lim-tarbiyasiga rahbarlik qilish, mustaqil ishlashga va oddiy malaka, ko‘nikmalarni shakllantirishning pedagogik asoslari (aqli zaif o‘quvchilar misolida) masalalariga doir tadqiqotlar M.Xakimova tomonidan tadqiq qilingan bo‘lib, maxsus yordamga muhtoj o‘quvchilarning ta’lim-tarbiyasi muammolari, xususan, ularni kasbhunarga o‘rgatish bo‘yicha ish olib borilgan

SH.S.Sharipovning ilmiy izlanishlarida esa bo‘lajak kasb ta’limi va mehnat ta’limi o‘qituvchilari-talabalarni ixtirochilik faoliyatga tayyorlashning ilmiy yo‘nalishlarini ishlab chiqqan

A.R.Xodjaboyev tomonidan bajarilgan tadqiqot ishida mehnat va kasb ta'limi o'qituvchisining o'quv-metodik ta'minotining pedagogik asoslari nazariy jihatdan ishlab chiqilgan, ularni amaliyotda qo'llash yo'llari ko'rsatib berilgan

M.Urazova bo'lajak kasbiy ta'lim pedagogini loyihalash faoliyatiga tayyorlash texnologiyasini takomillashtirish muammosini tadqiq qilgan

S.F.Turg'unboyevning eshitishida nuqsoni bo'lgan o'quvchilar misolida "O'zbekistonda imkoniyati cheklangan bolalarga ixtisoslashtirilgan mакtab-internatlar bitiruvchilarining ijtimoiy moslashuvi" bo'yicha olib borilgan tadqiqot ishlarida bitiruvchilarning oilaviy hayoti va kasbiy faoliyatidagi muammolarini aniqlash va ijtimoiy pedagogik xususiyatlarini aniqlashtirishi aks ettirilgan

X.S.Akramovaning "Aqli zaif 4-5 sinf o'quvchilarida mehnat ko'nikmalarini shakllantirishda kompyuter dasturidan foydalanish texnologiyasi" mavzusida olib borgan tadqiqot ishida ixtisoslashtirilgan mакtab, mакtab-internatlarda «Texnologiya» dars jarayonida aqli zaif o'quvchilarning umumiy mehnat ko'nikmalarini samarali egallashiga mo'ljallangan kompyuter vositalarini: elektron darslik, multimedya, slayd, video, elektron qo'llanmalarni fanga tadbiq qilish bilan texnologik jihatdan to'ldirilgan .

Z.N.Mamarajabovaning tadqiqotida adabiy ta'lim jarayonida zaif eshituvchi bolalar nutqining rivojlanganlik mezonlari badiiy asarni idrok qilish, o'qigan asarlari haqidagi fikrlarini og'zaki nutq vositasida bayon etish, bibliografik bilim, malakalarni egallash, kitobxonlik va adabiy- ijodiy faoliyat motivlari darajasi pedagogik ko'rsatkichlar asosida diagnostik va majmuaviy yondashuvlar orqali aniqlashtirilgan. Boshlang'ich sinf zaif eshituvchi o'quvchilar nutqini rivojlantirishning metodik ta'minoti integratsiyalashgan aloqalar va loyihalash bosqichlari matnlarning qiyosiy tahlili, qo'lbola kitob nashri, fotoalbum, ishchi daftar tayyorlash faoliyatli-kompetensiyaviy yondashuv orqali takomillashtirilgan

D.B.Yakubjanovaning tadqiqot ishida ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari boshlang'ich sinflarida korreksion-rivojlantiruvchi ta'lim texnologiyalarini takomillashtirishning pedagogik-psixologik asoslari, omillari, tamoyillari aniqlangan, korreksion-rivojlantiruvchi texnologiyalar tushunchasi amaliy tavsiflangan. Eshitishida nuqsoni bo'lgan boshlang'ich sinf o'quvchilarining matematik bilim, ko'nikma va malakalari asoslarining shakllanganligini baholashga yo'naltirilgan hamda raqamli tahlil asosida o'rGANISHGA mo'ljallangan matematik topshiriqlarning didaktik vazifalari qo'llangan tashxis qilishning vositalari tizimlashtirilgan

D.B.Yakubjanova eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari boshlang'ich sinflarida korreksion-rivojlantiruvchi ta'lim texnologiyasi modeli tarkibi va mazmuni o'quvchilarning matematik bilim, ko'nikma va malakalari asoslarini shakllantirishga qaratilgan adaptiv, innovatsion tuzilmalarning kiritilishi asosida takomillashtirish bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlarida yoritilgan

Imkoniyati cheklangan bolalarni ijtimoiy hayotga tayyorlashning samarali texnologiyalari F.U.Qodirovaning tadqiqotlarida o'z aksini topgan va zaif eshituvchi

o'quvchilarning mehnat va kasbga tayyorgarlik muammolarini bartaraf etish bo'yicha korreksion ishlari muallifning boshlang'ich sinf zaif eshituvchi o'quvchilar uchun nashr qilingan predmetli amaliy ta'lif texnologiya darsliklarida aks ettirilgan

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1Қодирова Ф.У. Имконияти чекланган болаларни ижтимоий ҳаётга тайёрлашнинг самарали технологиялари. Педагогика фанлари доктори (DSc) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация (DSc) дисс. автореф. – Т.: 2020. - 22 б.

2Мамаражабова. З.Н. "Адабий таълим жараёнида заиф эши тувчи ўқувчилар нутқини ривожлантириш" мавзусидаги педагогика фанлари бўйича педагогика фанлари доктори (DSc) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертацияси автореферати-Т.: 2020 68 б

3Муминова Л.Р. Теоретические основы коррекционно-педагогической работы по преодолению речевого недоразвития у детей дошкольного возраста. Автореф. дисс. ... док. пед. наук. – Т.: ТГПИ, 1992. – 39 с.

4Муминова Л.Р., Шомахмудова Р. Ш. Имконияти чекланган болаларни индивидуал коррекцион-ривожлантириш дастурининг методик асослари. –Т.: "Раззоқов О.Ж. босмахонаси". 2007.-27 б.